

ERKIN VOHIDOV'NING "NIDO" DOSTONIDA METAFORA USLUBIY VOSITA SIFATIDA

Hamrayev Ilg'or Aktamovich

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali Stajyor o'qituvchisi.

Orziqulova Nafosat Usmon Qizi

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali,

Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti.

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1 - bosqich 103 - guruhi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15208813>

Annotasiya. Ushbu maqolada, o'zining sodda, teran ravon va mazmunli ijodi, mashhur shoir "Erkin Vohidov"ning "Nido" dostonidagi qo'llangan metafora usulini qo'llanilishi. Ushbu dostonda o'zbek xalqining farzandini otasiga bo'lgan mexri va muxabbati, oilasiga bo'lgan sog'inch hissi tasvirlangan. Bu dostonda metafora ma'noni yanada yorqin va ta'sirli aniq va tez tushunishga, yorqin, ta'sirli qilib yetkazib berish usuli sanaladi va bu usuldan "Erkin Vohidov"she'riyatida mohirona foydalaniladi.

Kalit so'zlari: Metafora, o'xshatish, qiyoslash, she'riyat, obraz.

МЕТАФОРА КАК СТИЛЕВОЕ СРЕДСТВО В ПОСЛАНИЕ ЭРКИНА ВОХИДОВА «НИДО»

Аннотация. В этой статье анализируется использование метафоры в стихотворении известного поэта Эркина Вохидова "Нидо". В стихотворении изображена любовь и привязанность узбекского ребенка к своему отцу, а также глубокая тоска по своей семье. С помощью метафор поэт ярко и эффективно передает внутренние переживания, скорби и любовь персонажа. Метафора используется как эффективный метод для более четкой и мощной передачи смысла. В своей поэзии Эркин Вохидов мастерски использует этот прием, позволяя читателю понять глубокие эмоциональные переживания и образы.

Ключевые слова: Метафора, сравнение, аналогия, поэзия, образность.

METAPHOR AS A STYLISH MEANS IN ERKIN VOHIDOV'S EPISTLE "NIDO"

Abstract. This article analyzes the use of the metaphor technique in the famous poet Erkin Vohidov's poem "Nido". The poem portrays the love and affection of an Uzbek child for their father and the deep longing for their family. Through the use of metaphors, the poem vividly and effectively expresses the inner struggles, sorrows, and love of the individual.

The metaphor is employed as an effective method to convey meaning more clearly and powerfully. In his poetry, Erkin Vohidov skillfully utilizes this technique, enabling the reader to grasp deep emotional expressions and images.

Keywords: Metaphor, comparison, analogy, poetry, imagery.

Metafora: - (grekcha-ko'chirish) bir predmet belgisini, harakatning o'xshash tomonini ko'chirish degan ma'noni anglatadi. Metafora-biror narsa yoki harakatni tushuntirish maqsadida ma'lum bir adabiyot tushuniladi. O'xshashlik yo'q bo'lishi metaforik so'zlarni oddiy qo'llanganligi.

Metafora atamasini ilk bor Izokrat tomonidan "Evagarus" asarida qo'llangan. Ingliz olimi E.Ortani kundalik hayotda metaforani 3ta bosqichini aytib o'tgan.

- 1) Metafora bizning nutqimizni yorqin qiladi
- 2) Metafora bizga qisqacha gapirishni o'rgatadi
- 3) Metafora bizga ifodalab bo'lmaydigan narsani tushunishga yordam beradi.

Metafora harakat-hoalat, belgi-xususiyat, o'xshashlik belgisini ifodalab, she'riyatni tushunishga yordam beradi. Metaforaga juda yaqin o'xshatishlar bo'lib, ular yordamida biz shaxs va predmetni bir-biriga o'xshatamiz. U nafaqat shashlik va qiyoslash solishtirish usullarini ham mavjud. Metaforaga o'quvchilarni tushunishga va aniqroq anglashga yordam beradi. o'zida ijodkorlikni yanada namoyon qiladi.

Kirish:

"Erkin Vohidov" she'riyat elchisi sifatida ham tanilgan. U o'zbek shoiri, dramaturgi, adabiy tarjimoni va davlat arbobi. U she'r yozish bilan birga tarjimonlik bilan ham shug'ullangan.

E.Vohidovning she'rlarida, dostonlarida o'zbek xalqining insoniy fazilatlari, urush yillaridagi o'zbek xalqining yashash tarzi, o'zbek farzandlarining qay darajada ilm olishga imkoniyat yo'qligi, mehrga zor, ya'ni ota mehrga muhtojligi tasvirlab berilgan.

"Nido" dostonida ikkinchi jahon urushidagi holatlar tasvirlab bergan. Erkin Vohidovning o'zini bolaligi tasvirlangan bo'lib, urushda halok bo'lgan otasi Chayonboy Vohidovga bag'ishlab ushbu "Nido" dostonini yozgan hisoblanadi. O'sha urush natijasida qanchadan qancha ayollar turli, bolalar yetim qolgan, gullab yashayotgan qishlog'-u shaharlar vayronaga aylangan. Bu urush insonlarni boshiga juda ko'p kulfatlarni solgan. Bu doston 20 yil avval otasi urushga ketib halok bo'lgan va xotira-hayollari iztiroblari bilan boshlanadi. Oradan shuncha yil o'tgan bo'lsa ham hamon otasini kelishini intiqlik bilan kutayotgan bolani holatini tasvirlangan.

Tinchlik uchun insoniyatning baxtli kelajagi uchun kurash nidosi XXI asrda ham, undan keyin ham insonlar qalbida jo'sh urub turmog'i zarur.

Muhokama qismi:

"Nido"dostonini o'zini ham metafora deb olsak bo'ladi. Bu so'z "Nalaya"yoki "Chiroyli so'z"ma'nosida ham keladi, lekin bu insonning ichki dardi, ruhiy holati, ichki dunyosini bildiradi.

Nido dostonining birinchi bandida she'riyatning chuqur ma'no tasvir ifoda bilan to'la aks etgan.

Hayqiraman,
Tog'lar bag'ridan
Gumburlagan sado keladi,
Ona Yerning otash qa'ridan
«O'g'lim!» degan nido keladi.
«O'g'lim!» Vujudimni chulg'ar alanga,
Bo'g'zimga tiqilar hayajon.
– Mana men, o'g'lingiz, Dardli olamga
Sizdan tanho yodgor, So'ylang, otajon!
So'ylang, bir daqiqa quloq solayin,
Ovozingiz tinglab to'yolmaganman.
Bir marta yo'qotib topolmaganman,
Xayolimda tiklab olayin.

Otajon

Men axir qutlug' bu so'zni
Yigirma yil olmadim tilga,
Yigirma yil saqladim dilda
Armonli o'g'lingiz tinglaydi sizni,
So'ylang, eshitaman.
Vujudim tilka, Yuragimni yoqar o'tli iztirob,
Ammo ko'zlarimda bir tomchi yosh yo'q.
Bag'rim o'yib, Bu kun menga bermoqda azob
Sizning Ko'ksingizni teshgan qora o'q.
Silqib oqayotir Ko'kragimdan qon.

Qalbim o'rtamoqda so'ngsiz armonim...

Yurak qonim bilan bitgan dostonim

Sizga bag'ishladim, Otajon!

Bu bandida metafora juda chiroyli tasvirlangan. Masalan mana shu misralarida shunday tasvirlangan

Hayqiraman to'lar bag'ridan

Gumburlagan sado keladi

Bu ikki misrada metafora juda ham ta'sirli tasvirlangan. Bu so'zlarda to'lar bag'ridan gumburlagan sado orqali insonning ichki holatini ruhiy dunyosini, ichidagi dardini tog'larning baridan hayqirsa ham dardlari ko'pligi tasvirlangan. Tog'larning balandligi va kuchi orqali insonning his-tuyg'ulari ta'sirchan bo'lganligi ifodalanadi. Gumburlagan sado esa tashqaridan eshitilgan bo'lsa-da aslida ichki dunyodagi iztirob, qiyinchilik, dard, azob sifatida ishlatiladi.

Ona yerning otash qa'ridan

O'g'lim degan nido keladi

Bu yerda "ona yerning "otash qa'ridan kelgan nido insonning ruhiy holati azoblaridan iztiroblaridan chiqish uchun ilohiy yoki ko'ksiga uruvchi chaqiriqdir. Bu nido insonning erkinlik, beg'uborlik, xursandchilik, mag'rurlikni emas balki ichki dardlarini ifodalaydi.

Ovozingiz tinglab to'yolmaganman

Bir marta yo'qotib topolmaganman

Bu so'zlar orqali sevgi va insonni qo'llab -quvvatlashga bag'ishlangan ovoziga bo'lgan ehtiyoj o'zi sevgan yoki mehrini kutgan insonning yuksak ro'li ifodalanadi. Sevgi va insonni bir -birini qo'llab quvvatlashi, ardoqlashi, mehr qo'yishi, tushunishi, bir biridan kutgan mehrni yuksak darajaga ko'tarilishi tushuniladi.

Bu "Nido "dostoniga o'xshash qilib qolgan asarlardagi metafora usulini ham keltirishimiz mumkin.

Masalan: "**Birinci Muhabbat**", "**Yulduzlar**", "**Yolg'on dunyo**", "**Ertak**", "**Hayot**",

Shu kabi asarlarini ham keltirishimiz mumkin, bu asarlarida ham metafora juda ham chiroyli tasvirlangan, hammasi "Nido"dostoni bilan inson va hayot, sog'inch hislari tasvirlangan.

"Birinci muhabbat" A. Oripov she'ri

Kecha oqshom falakda oy bo'zarib botganda,

Zuhra yulduz miltirab, xira xanda otganda

Ruhimda bir ma'yuslik, sokinlik uyg'otganda

Men seni esga oldim, birinchi muhabbatim,
Eslab xayolga toldim, birinchi muhabbatim.

Bu doston ham lirik va falsafiy xarakterga ega insonning ichki kurashini va ma'naviy izlanishlarni tasvirlaydi. Bu dostonidagi o'xshashlik "Nido"dostonidagi yulduzlarni, tabiat, borliq, insonning ichki dunyosi orqali tasvirlanadi. "Birinchi muhabbat" bu bugungi yulduzlar va dengizlar "Nido"dostonidagi muhabbat va umidga bog'lanadi. Insonni ruhidagi ya'ni tanasidagi ma'yuslik, sokinlik ham uyg'otolmaydigan bo'lib qolganligi tasvirlangan.

"Yo'g'on dunyo"

"Yo'g'on dunyo, yo'g'on dunyo,

Sening ichingda nima bor?

Nima o'ylayman, nima qilaman,

Nega men bo'lib qoldim, nima bo'ladi?"

Bu asar jan ham Erkin Vohidovning ichki izlanishlarini, insonning ruhiyati ifodalanadi.

Har ikki asarda ham insonning ichki dunyosi o'zini anglashi to'siqlaridan o'tishi, haqiqiy baxtni izlash tushiniladi. Bu misrada hayotni og'irligi va insonning ichki dunyosini aks ettirgan.

"Yo'g'on dunyo"iborasi og'ir kun, qiyinchilik bo'lgan kun, ya'ni Nido dostonida qo'llangan bolani otasiga bo'lgan sog'inchi bolaning otasizligiga o'rganishi, kelmasligini bilsada lekin bunga ishonmasligi ifodalanadi.

Xayolning tumanli pardasi aro

Yillar ko'z oldimda charx urayotir.

Qishloq ko'chasidan zanjiday qaro ol

Olov bolaligim yugurayotir.

Dunyo qayg'usiga bo'lmagan oshno,

Qah-qah urayotir, Barq urayotir.

Bilmas, boshi uzra bulutli samo

Chaqmoq chaqayotir,

Guldurayotir

Bilmas, yaralangan bu majruh dunyo

Qasos so'rayotir,

Bong urayotir...

Qadamlar,

Qadamlar

Og'ir qadamlar..
Etiklar zarbidan titraydi tuproq.
Qayerga ketmoqda shuncha odamlar?
Nahotki, yo'llari shunchalar yiroq!
- Ana, ko'ryapsanmi?
Mening dadamlar!
Dada!!!
Ovozim hech chiqmaydi biroq
– Yuguraman - ortga ketar qadamlar,
Yig'layman - ko'zimga kelmaydi namlar
Murg'ak vujudimda faqat zo'r titroq
Bo'g'zimda alamlar
Achchiq alamlar
Yo'lning o'rtasida turibman,
Shu choq - Poyezd qichqiradi,
To'xtang, odamlar!
Qayga ketmoqdasiz?
Qani dadamlar?!
Tepamda yonadi zangori chiroq..
Cho'chib uyg'onaman
Onam qoshimda.

Tabiat va insonning ruhiy uyg'unligi

Erkin Vohidov ko'plab joylarda insonni tabiat elementlaridan uning ruhiy holati bilan uyg'unlashtiradi

Dostonni boshidan boshlab odamning ichki iztiroblari va kashfiyotlarini insonni tabiat bilan bog'laydi.

Olov va alangga: Iztirobning kuchi

Vujudimni chulg'ar alangga

Yuragimni yoqar o'tli iztirob

O't va alangga obrazlar, iztirobning qayg'u, azob kutilgan darajada kuchli bo'lishni ta'kidlaydi. Insonning jismoniy va ruhiy azoblarini ham aks ettirdi. O't-bu nafaqat tashqi yong'in, balki ichki dardning kuchli va o'tkir holatini ifodalaydi

Qon: Iztirobning jismoniy ifodalash

Ko'kragimda qon

Yurak qonim bilan bitgan dostonim

Shu kabi metaforalar bilan qonning tasviri nafaqat biologik jarayonni, balki iztirob va muommolarning ichki holatdagi ifodasini anglatadi. Qon yurak, dard birgalikda chuqurlik va kuch beradi.

Qon iztirob va dardning jismoniy va ruhiy o'rgangan holatini ifodalaydi bir vaqtning o'zida faqat tashqi emas, ichki azobni ham aks ettirdi

O'lim va jahon: Insonning umidsiz holati

O'lim sochmoqdadir

Qon kechib hozir

Bu misrada o'lim bilan jangni insonning hayotidagi qat'iyatni, kurashni, chidamlilikni, sabrni anglatadi. Bular orqali insonni faqat o'limdan emas saqlash, asrash uni yo'qotmaslik haqida ifodalanadi.

Xulosa

Bu dostonidagi hayqiriqlar, tog'larni ortidan qichqiriqlar hammasi otasiga bo'lgan mehnri, sog'inchni, hissiyotni ifodalab keladi. Poyezdga qarab qichqirishlar, odamlarni to'xtatishlarini hammasi o'xshatishlar bilan o'quvchiga ham har qanday insonga ta'sirli bo'lib ifodalanadi. Bu dostonida, Nido nafaqat oila, ota-o'g'il balki insonni sevgisini ham aks ettiradi. Insonning o'yi, dardi, sevgisi, mehr-muhabbati hammasi insonni ichki iztiroblarini bildiradi. Erkin Vohidov o'z she'rlarida tasvirlashda mukammal va ta'sirli qilib qo'llagan shoirlardan biridir.

REFERENCES

1. Adabiyot darsligi 5-sinf adabiyot darsligi 1-qism 144 -bet: Toshkent "O'zbekiston nashriyoti"
2. O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami "N.Erkaboyeva"87-89-bet 2017-yil
3. Erkin Vohidov (1979-yil) Nido dostoni 5-Sinf 144 bet: "Toshkent "O'zbekiston
4. Abdurazzoqov.M., "Erkin Vohidov hayoti" va ijodi 144-bet 1-qism 5-sinf adabiyot darsligi"Toshkent "